

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 17 (1616), 2026-yil 27-yanvar, seshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news

SPORT DAVLATLAR VA XALQLAR O‘RTASIDAGI MULOQOT, O‘ZARO ANGLASHUV
HAMDA HAMKORLIKNI MUSTAHKAMLASHNING MUHIM VOSITASIO‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 26-yanvar kuni Toshkentda bo‘lib o‘tayotgan
Osiyo Olimpiya kengashining 46-Bosh assambleyasida ishtirok etdi.

Tadbirda yetakchi xalqaro va mintaqaviy sport tashkilotlari rahbarlari hamda vakillari, jumladan, Milliy olimpiya qo‘mitalari assotsiatsiyasining birinchi vitse-prezidenti, Qatar Olimpiya qo‘mitasi prezidenti Shayx Jav‘an bin Hamad Ol Soniy, Xalqaro antidoping agentligi prezidenti Vitold

Banka, Xalqaro gimnastika federatsiyasi prezidenti Morinari Vatanabe, Og‘ir atletika federatsiyasi prezidenti Muhammad Jalud, “World Boxing” prezidenti Gennadiy Golovkin, Chim ustida xokkey federatsiyasi prezidenti Muhammad Tayyab Ikram, Osiyo Paralimpiya qo‘mitasi raisi Majid Rashid,

Xalqaro sambo federatsiyasi prezidenti Vasily Shestakov, Milliy Olimpiya qo‘mitalari assotsiatsiyasi bosh kotibi Gunilla Lindberg va Afrika Olimpiya qo‘mitalari assotsiatsiyasi prezidenti Mustafo Berraf ham qatnashdi. Shuningdek, assambleya ishida maxsus mehmonlar va rasmiylar, xususan, Amerika

Qo‘shma Shtatlari Prezidentining maxsus vakili Paolo Zampolli, Rossiya Federatsiyasi sport vaziri Mixail Degtyarev, Saudiya Arabistoni sport vaziri Shahzoda Abdulaziz bin Turki ol Saud, Qatar yoshlar va sport vaziri Shayx Hamad ol Soniy hamda boshqalar ishtirok etdi.

Davlatimiz rahbari o‘z nutqida tobora kuchayib borayotgan global ziddiyatlarga qaramay, sport davlatlar va xalqlar o‘rtasidagi muloqot, o‘zaro anglashuv hamda hamkorlikni mustahkamlashning universal vositasi sifatida o‘rin tutishini alohida ta’kidladi.

O‘zbekiston Prezidenti Shayx Jav‘an bin Hamad Ol Soniyning Osiyo Olimpiya kengashi prezidenti etib saylangani bilan qutlab, uning yuksak darajadagi kasbiy mahorati, salmoqli xalqaro tajribasi va nafaqat Osiyo qit‘asi, balki butun dunyoda sport rivojiga qo‘shgan ulkan hissasini ta’kidlab o‘tdi.

Davomi 2-betda

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
SHAVKAT MIRZIYOYEVNING OSIYO OLIMPIYA
KENGASHINING 46-BOSH ASSAMBLEYASIDAGI NUTQI

Hurmatli do‘stlar!

Xonimlar va janoblari!

Bugun dunyoda globallashuv tobora kuchayib, ziddiyatli va tahlikali jarayonlar ko‘payib borayotgani hech kimga sir emas. Bunday murakkab vaziyatda davlatlar va xalqlar o‘rtasidagi muloqot, o‘zaro tushunish va hamkorlikni mustahkamlashda sportning beqiyos o‘rni bor.

Tinchlik va do‘stlik elchisi bo‘lgan sportning butun bashariyatni, jumladan, biz yashayotgan Osiyo qit‘asi xalqlarini birlashtirishdagi o‘rni va ta’sirini hech narsa bilan o‘lchab, baholab bo‘lmaydi.

Osiyo Olimpiya Kengashi qit‘amizning 4 milliard 800 milliondan ortiq aholisini birlashtirib, Olimpiya harakatining do‘stlik, o‘zaro hurmat, adolat va tenglik kabi ezu g‘oyalarni faol targ‘ib etmoqda. Sizlar mintaqamizdagi ijobiy o‘zgarishlarga ulkan hissa qo‘shib, sport diplomatiyasi orqali “Jiplashgan Osiyo” namunasini ko‘rsatib bermoqdaz.

Fursatdan foydalanib, bizga yuksak ishonch bildirib, Osiyo Olimpiya Kengashining 46-Bosh Assambleyasini mamlakatimizda o‘tkazayotgani uchun Kengash rahbariyatiga O‘zbekiston Prezidenti va Milliy Olimpiya qo‘mitasi rahbari sifatida alohida minnatdorlik bildiraman.

Bugun mana shunday tarixiy anjumanda Sizlar bilan go‘zal va betakror yurtimiz zaminida uchrashib turganimizdan mamnunman.

O‘zbekistonga xush kelibsiz!

Hurmatli assambleya ishtirokchilari!

Bugun sizlar qit‘amizda o‘zaro ishonch, ahillik va hamjihatlik rishtalarini mustahkamlashga xizmat qilayotgan yirik platforma — Osiyo Olimpiya Kengashining Bosh Assambleyasida juda ko‘p masalalarni

muhokama qildingiz. Shular qatorida aynan Toshkent shahrida Kengashning Prezidenti lavozimiga saylov bo‘lib o‘tayotgan ham, shubhasiz, ulkan tarixiy voqeadir.

Ushbu yuksak lavozimga bir ovozdan saylangan Shayx Jav‘an bin Hamad ol Soniy Hazrati Oliylarini samimiy qutlashga ijozat bergaysiz.

O‘tgan yili aprelda — bugun yangi saylangan Prezident bilan uchrashuvimiz chog‘ida sportni rivojlantirish borasida sermazmun suhbat qilgan edik. Shayx Jav‘an hazratlari Milliy Olimpiya qo‘mitalari assotsiatsiyasining birinchi vitse-prezidenti sifatida Qatarda futbol va suv sporti bo‘yicha jahon chempionatlari kabi ko‘plab yirik sport tadbirlarini yuqori saviyada o‘tkazgan, katta bilim hamda tajribaga ega ham. Shu bilan o‘zining nafaqat Osiyo qit‘asi, balki butun dunyoda sport rivojiga ulkan hissa qo‘shmoqda. Bugun Osiyo Olimpiya Kengashi mana shunday malakali nomzodni Prezident lavozimiga saylab eng to‘g‘ri qarorni qabul qildi, deb o‘ylayman.

Ishonamanki, Shayx Jav‘an hazratlarining bevosita rahbarligida Osiyo Olimpiya Kengashining nufuzi bundan ham yuksaladi. Hurmatli tadbir ishtirokchilari!

Biz so‘nggi yillarda Osiyo Olimpiya Kengashi bilan ko‘p qirrali hamkorlik aloqalarini yangi bosqichga ko‘tardik. Jumladan, 2022-yilda Osiyo Olimpiya Kengashi Ijroiya qo‘mitasining 77-sessiyasini mamlakatimizda muvaffaqiyatli o‘tkazdik. Ushbu nufuzli Tashkilot tomonidan O‘zbekiston vakili ilk bor Markaziy Osiyo mintaqasi bo‘yicha vitse-prezident etib saylandi.

2029-yilgi Yoshlar Osiyo o‘yinlariga mezbonlik qilish uchun aynan O‘zbekiston

tanlanganini biz mamlakatimizga mas’uliyatli sport hamkori sifatida berilgan yuksak baho, deb qabul qilamiz. Bu ishonch esa bizga qo‘shni va qardosh bo‘lgan Markaziy Osiyo davlatlari bilan sport aloqalarini mustahkamlash uchun puxta zamin yaratmoqda.

Shu o‘rinda Osiyo Olimpiya Kengashi Bosh direktori va “World Aquatics” federatsiyasi rahbari Husayn al-Musallam janoblari o‘zbek sportining uzoq yillik va ishonchli do‘sti ekanini alohida ta’kidlashni istar edim. Bu kishi 1993-yildan buyon yurtimizga muntazam tashrif buyuradi. O‘zbekistonga katta mehr qo‘yib, mamlakatimizning xalqaro sport bo‘yicha tashabbuslarini faol qo‘llab-quvvatlab kelmoqda.

Janob Husayn al-Musallam nafaqat Osiyoda, balki xalqaro miqyosda o‘zining aql-zakovati, qat’iyat va irodasi, barchaga birdek munosabati bilan keng sport jamoatchiligi ishonchini qozongan. Suv sporti barcha turlarining butun dunyoda yangi bosqichga ko‘tarilgani bu fikringiz yaqqol tasdig‘idir. Xususan, Los-Anjeles — 2028 Olimpiya o‘yinlarida suv sporti turlari dasturi 49 tadan 55 taga ko‘paygani, eng avvalo, rivojlanayotgan davlatlar uchun yangi imkoniyat bo‘ldi.

Kuni kecha yurtimizda “World Aquatics” federatsiyasi Ijroiya qo‘mitasining yig‘ilishi o‘tkazilib, uning Mintaqaviy filiali tashkil etilgani Markaziy Osiyo sport hamjamiyati uchun katta ko‘mak va madad bo‘lishi shubhasiz.

Ta’kidlash joizki, Osiyo Olimpiya Kengashi amalga oshirayotgan ishlarni butun dunyo sport jamoatchiligi har jihatdan tan olmoqda. Jumladan, Xalqaro olimpiya qo‘mitasi prezidenti Kirsti Koventri xonimning Bosh Assambleyaga

yo‘llagan videomurojaati ham bunga yaqqol misoldir.

Anjumanda Xalqaro olimpiya qo‘mitasi vakillari sifatida Jeyms Makleod va Birlashgan kurash dunyosi prezidenti Nenad Lalovich ishtirok etayotgani ham ana shunday yuksak e’tiborning dalilidir.

Fursatdan foydalanib, Assambleya ishida biz bilan birga ishtirok etayotgan Xalqaro antidoping agentligi prezidenti Vitold Banka, Xalqaro gimnastika federatsiyasi prezidenti Morinari Vatanabe, Og‘ir atletika federatsiyasi prezidenti Muhammad Jalud, “World Boxing” prezidenti Gennadiy Golovkin, Chim ustida xokkey federatsiyasi prezidenti Muhammad Tayyab Ikram, Xalqaro qilichbozlik federatsiyasi vitse-prezidenti Anna Delgado, Osiyo Paralimpiya qo‘mitasi raisi Majid Rashid, Milliy Olimpiya qo‘mitalari assotsiatsiyasi Bosh kotibi Gunilla Lindberg, Afrika Olimpiya qo‘mitalari assotsiatsiyasi prezidenti Mustafo Berraf janoblariga alohida tashakkur aytaman.

Bundan tashqari, anjumanimizda biz bilan bir safda turgan qadrlı mehmonlarimiz — AQSH Prezidentining maxsus vakili Paolo Zampolli, Rossiya Federatsiyasi sport vaziri Mixail Degtyarev, Saudiya Arabistoni sport vaziri Shahzoda Abdulaziz bin Turki ol Saud, Qatar yoshlar va sport vaziri Shayx Hamad ol Soniy, Iordaniya Olimpiya qo‘mitasi Prezidenti Shahzoda Faysal al-Hussayn, Brunej Dorussalom Milliy Olimpiya qo‘mitasi Prezidenti Shahzoda Sufri Bolqiyax, Butan Olimpiya qo‘mitasi Prezidenti Shahzoda Jigyel Uygen Vangchuk, Kuvayt Milliy Olimpiya qo‘mitasi Prezidenti Shayx Fahad Saboh as-Saboh hazratlariga ham o‘z hurmatimizni bildiramiz.

Davomi 2-betda

O‘ZBEKISTON BOJXONA
SOHASI XODIMLARIGA

Hurmatli bojxona organlari xodimlari!

Qadrlı serjant, ofitser va generallar!

Muhtaram faxriylar!

Sizlarni 26-yanvar — O‘zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari xodimlari kuni bilan samimiy tabriklayman.

Mustaqillik yillarida bojxona organlari mamlakatimiz iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash, milliy manfaatlarimizni himoya qilish va chegaralarimiz daxlsizligini asrashda davlatning ishonchli tayanchi bo‘lib kelmoqda.

Xususan, Yangi O‘zbekiston sharoitida bojxona organlari zamonaviy, ochiq va samarali tizimga aylanib, yurtimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shmoqda. Sizlarning bilim va tajribangiz, kasbiy mahorat va qat’iyatigingiz mamlakatimiz iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, sohani raqamlashtirish, ortiqcha byurokratiya hamda inson omilini kamaytirish va xalqaro standartlarni joriy etish borasidagi amaliy ishlaringiz alohida e’tiborga loyiq.

Sohadagi tub islohotlar tufayli keyingi yillarda bojxona rasmiylashtiruvı vaqti 40 foizga qisqartirildi, deklaratsiyalarning 20 foizi inson omilisiz amalga oshirilmoqda. 2025-yilda 76,2 trillion so‘m bojxona to‘lovlari undirilib, bu ko‘rsatkich 21 foizga oshdi va uning davlat budjeti daromadlaridagi ulushi 25 foizga yetdi.

Shuningdek, 1,2 trillion so‘mlik tovarlarning noqonuniy aylanmasiga chek qo‘yildi. Xavflarni oldindan tahlil qilish natijasida 7 trillion so‘m, tovarlarni rasmiy importga jalb etish orqali qo‘shimcha 2,3 trillion so‘m byudjet mablag‘i undirilishi ta’minlandi.

Shu bilan birga, 1,8 tonna giyohvandlik, 1,1 tonna psixotrop va kuchli ta’sir etuvchi moddalarning noqonuniy muomalasiga chek qo‘yildi. Jahon savdo tashkiloti talablari asosida bojxona tartib-taomillari soddalashtirildi. Jahon bojxona tashkiloti bilan samarali hamkorlik yo‘lga qo‘yildi.

Yangi O‘zbekiston bojxonasining xalqaro nufuzi yuksalib bormoqda.

Mamlakatimiz bojxona laboratoriyasi va kinologiya markazining mintaqaviy filial maqomiga ega bo‘lishi, Bojxona institutining “PICARD” dasturi standartlari asosida akkreditatsiyadan o‘tishi, bojxona idoramizning mazkur tashkilot Audit qo‘mitasi a’zoligiga saylanishi ham shundan dalolat beradi. Bojxona tizimida bilimli, tashabbuskor yosh kadrlar safining kengayib borayotgani, ularning malakali xalqaro ekspertlar sifatida e’tirof etilayotgani quvonarlidir.

Qadrlı soha vakillari!

Bugungi murakkab zamonda iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash, jumladan, kelgusi besh yilda “yashirin iqtisodiyot” ulushini ikki karra qisqartirishda bojxona organlari faollari katta hissa qo‘shmoqda. Sizlarning kasbiy mahorati va farzandlariga ezu tilaklarimizni yo‘llaymiz.

Hurmatli bojxona organlari xodimlari! Muhtaram faxriylar! Sizlarni yana bir bor chin dildan qutlab, barchangizga mustahkam sog‘liq, xonadonlaringizga fayz-u baraka tilayman. Mas’uliyatli va sharafli xizmattingizda yangi yutuq va zafarlar yor bo‘lsin!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti



FAROVONLIK XARITASI

MAHALLA —

O‘ZBEK JAMIYATINING TARIXIY MEROSI, TINCHLIK VA TARAQQIYOT POYDEVORI

**Ismoil SAIFNAZAROV,**
TDIU professori, falsafa fanlari doktori

Prezidentimizning Oliy Majlis va xalqimizga yo‘llagan Murojaatnomasi mamlakat taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlari, jamiyat birligi va davlat

siyosatining ustuvorliklarini belgilab berdi. Yangi O‘zbekistonning yaqin va o‘rta istiqbolli taraqqiyoti dasturida mahalla institutiga alohida urg‘u berilishi uning ijtimoiy kapitalni shakllantirish va milliy birdamlikni mustahkamlashdagi beqiyos o‘rnini yana bir bor tasdiqladi. Bu mahallani nafaqat ma’muriy birlik, balki betakror taraqqiyot modelining markaziy bo‘g‘ini sifatida qabul qilishga qaratilgan strategik yondashuvni aks ettiradi.



2026-yilning “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili” deb e’lon qilinishi mahalla institutiga davlat e’tiborining yangi bosqichiga ishoratdir. Bu nafaqat mahalla tizimini yanada mustahkamlash, infratuzilmasini yaxshilash, kadrlar salohiyatini oshirish, balki mahallaning ijtimoiy-siyosiy rolini yanada kuchaytirishga qaratilgan keng ko‘lamli davlat dasturlarini amalga oshirishni anglatadi. Ushbu tashabbus mahallani mamlakatning butun ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasining markaziga qo‘yishga qaratilgan. Zero, mahalla tinch va ahil bo‘lsa, jamiyatimiz ham shunday namoyon bo‘ladi.

E’tiborlisi, joriy yil ushbu yo‘lda juda katta maqsad va mo‘ljallar belgilanmoqda, ularning ro‘yobi, shubhasiz, mahallalarni mamlakatimiz taraqqiyotining tayanch bo‘g‘iniga aylantiradi. Masalan, Prezidentimiz raisligida 23-yanvar kuni kambag‘allikni qisqartirish va aholi bandligini ta’minlash bo‘yicha 2026-yilda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan asosiy vazifalar yuzasidan o‘tkazilgan videosektor yig‘ilishida joriy yil uchun 1 million nafar aholini doimiy ish bilan ta’minlash, 181 ming oilani kambag‘allikdan chiqarish, kambag‘allikdan xoli mahallalarning sonini 2,5 barobar oshirib, 3,5 mingga yetkazish, ishsizlik va kambag‘allik darajasini 4,5 foizga tushirish vazifalari belgilandi.

Yoki 2026-yilga mo‘ljallangan Davlat dasturi loyihasini olaylik. Bunga doir Prezident farmoni loyihasida qayd etilganidek, joriy yil birgina mahallani rivojlantirish yo‘nalishi bo‘yicha mahallalarda 10 mingdan ziyod ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish loyihalarini ishga tushirish orqali qo‘shimcha 100 mingga yangi ish o‘rnini yaratish, mahallalar infratuzilmasini takomillashtirishga 20 trillion so‘m mablag‘ yo‘naltirib, ularga Yangi O‘zbekiston qiyofasini olib kirish, mahallalardagi muammolarni bir vaqtning o‘zida tezkor hal etishda barcha davlat organlariga mas’uliyatni yuklab, ijroni 7/24 rejimida onlayn nazorat qilish amaliyotini yo‘lga qo‘yish kabi ustuvor vazifalar nazarda tutilmoqda.

Ha, maqsadimiz ezu — odamlarni daromadli ish bilan ta’minlash, mahallalarda zamonaviy infratuzilma yaratish, mo‘ljallim aniq — kambag‘allik va ishsizlikni keskin kamaytirish, tadbirkorlikni rivojlantirish. Yuqoridagi aytganlarimiz — ustuvor vazifalar esa ana shu maqsadga zamin yaratishi bilan ahamiyatlidir.

Mahalla rivojlansa, butun mamlakatimiz yuksaladi. Demakki, mahalla jamiyatning eng asosiy poydevori. Bu — mahalla darajasidagi barqarorlik va ijtimoiy ahillik, umummilliy barqarorlikning garovi ekanini anglatadi. Mahalladagi ijobiy muhit aholi farovonligini ta’minlashga, ijtimoiy muammolarni erta aniqlash va hal qilishga yordam beradi. Bundan tashqari, mahalla davlat va jamiyat o‘rtasidagi ko‘priklarni qurish, davlat siyosatining bevosita aholiga yetib borishini ta’minlaydi.

Bu yerda odamlar bir-birini yaxshi tanidi, qiyinchilikda yordam beradi, umumiy muammolarni birgalikda hal qiladi. Mahallaning an’anaviy tuzilmalari, qariyalar kengashlari, xotin-qizlar qo‘mitalari va yoshlar yetakchilari orqali jamoaviy qarorlar qabul qilinadi, nizolar tinch yo‘l bilan hal etiladi va jamoat tartibi saqlanadi. Bularning barchasi aholi o‘rtasidagi o‘zaro ishonch va birdamlikni mustahkamlab, ijtimoiy kapitalni boyitadi.

Azaldan mahalla instituti yurtimizda hukm surayotgan tinch-osoyshta hayot, millatlararo do‘stlik va hamjihatlikni saqlash, yoshlarni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar — do‘stona qo‘shnichilik va o‘zaro hurmat, mehroqibat, yordamga muhtoj insonlarga g‘amxo‘rlik hamda vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayoniga zalvorli hissa qo‘shib keladi. Mahalla instituti chet el tajribasini andoza qila olmaydigan yagona tizimdir. Buni xorijlik ekspertlar ham e’tirof etib, uni o‘rganish kerakligini ta’kidlaydi.

Yutuqlar bilan birga xalqimiz mentalitetiga zid, masalan, “Oila — muqaddas” degan azaliy va ezu g‘oya qadrsizlanishi bilan bog‘liq ayrim holatlar ham uchrayotgani achinarlidir. Bunday paytda mahalla katta ijtimoiy kuchi sifatida maydonga chiqishi kerak. Chunki faollar, ko‘pni ko‘rgan oqsoqollar, tajribali nuroniyalarimiz jamoatchilik bilan birgalikda har qanday muammoni hal qilishga, xato qilgan yoshlarni to‘g‘ri yo‘lga solishga qodir.



Qolaversa, mahalla tadbirkorlikni rivojlantirish orqali kambag‘allikni qisqartirish, aholi farovonligini oshirish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim vazifa. Jamiyatimizning eng quyi bo‘g‘iniga kuch tushib, “mahallabay” ishlash tizimi yo‘lga qo‘yilgani o‘zini oqlamoqda. Har bir xonadon, har bir oila bilan individual reja asosida ishlab, daromadni oshirish uchun yetarli resurs ajratildi. Mahallalarni obod qilish, odamlar hayotini yaxshilash va tadbirkorlik infratuzilmasini rivojlantirishga har yili 2,5-3 milliard dollar yo‘naltirilyapti. Mahallalarga biznes muhiti, oilalarga esa farovonlik kirib borganini odamlar o‘z hayotida his etmoqda.

Bunday keng ko‘lamli sa’y-harakatlar hisobiga O‘zbekiston 2030-yilga qadar kambag‘allikni 2 karra qisqartirish bo‘yicha olgan majburiyatini barvaqt bajarishga harakat qilaypti. Oldinga qo‘yilgan maqsadlarga erishish uchun yettita ustuvor yo‘nalishni o‘z ichiga olgan “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturi amalga oshirilmoqda.

Odamlarning bilimini oshirmasdan turib, ularni “kambag‘allik girdobi”dan chiqarish imkonisiz. Shu bois, mamlakatimizda sifati ta’lim asosida inson kapitalini rivojlantirishga uzoq muddatli istiqbolida kambag‘allikni qisqartirishning asosiy “drayveri” sifatida qaralmoqda. Birgina misol,

bolajonlarning bog‘chalardagi qamrovi 27 foizdan 78 foizga oshgani natijasida 1 million nafar ayol ta’lim olish, kasb-hunar o‘rganish va daromad topish imkoniga ega bo‘ldi. Bu ishlarni davom ettirib, kambag‘al oilalar farzandlarini maktabgacha ta’lim bilan to‘liq qamrab olish uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda. Har bir kambag‘al oilada kamida 1 nafar oliy ma’lumotli yigit yoki qiz bo‘lishi uchun imtiyozli ta’lim krediti va davlat grantlari ko‘paytirilayotgani qvonorali. Bunday oilalarni aniqlashda, albatta, mahallaning o‘rni alohida.

Shu bilan bir qatorda, hududlarda infratuzilmani yaxshilash, odamlarga yashash uchun qulay sharoitlar yaratish — ko‘p o‘lchovli kambag‘allikni qisqartirishda muhim qadam bo‘ladi. Shu maqsadda dastur asosida qariyb 3,5 million aholi yashaydigan, sharoiti og‘ir mingta mahallada infratuzilma yaxshilanishi belgilandi. Natijada 2025-yilda 470 ming xonadonga qarashli tomorqaga suv bordi, yana 790 ming xonadonda elektr energiyasi ta’minoti yaxshilandi.

avaylashda bizga berilgan katta imkoniyat bo‘ldi. Binobarin, joylarda muammolarni hal qilishning yaxlit va ta’sirchan vertikal tizimi yanada mustahkamlanadi.

Mahallani rivojlantirish bo‘yicha belgilab berilgan vazifalarni, avvalo, o‘z ish uslubimiz uchun asosiy tamoyil sifatida belgilab olishimiz, bu g‘oyalarni keng jamoatchilik orqali xalqimiz turmush tarzi va madaniyatiga singdirishimiz lozim. Natijada mamlakatimizning barcha hududlarida obod qo‘shalar, ko‘rkam maskanlar, mahallalarimizda namunaviy xonadon va ko‘chalar soni ortib boraveradi. Ana shundagina odamlarimizning hayotga ishonchi yuksalib, yashashga, kelajakka intilishi yanada kuchayadi.

Joylarda tegishli topshiriqlar ijrosini ta’minlash doirasida mahallalardagi har bir ko‘chani obodonlashtirish, xonadon va tomorqa madaniyatini rivojlantirish, oilalarni mustahkamlash, yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishga qaratilgan tadbirlarni kengaytirish lozim. Ijtimoiy faol keksa avlod vakillarini keng jalb etgan holda yoshlarning bo‘sh vaqtini samarali tashkil etish, ularning ma’naviyatini yuksaltirish, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan tadbirlar mahalla obodligi va xavfsizligi, o‘z navbatida, yurt tinchligi va osoyishtaligiga xizmat etadi.

Shu ma’noda, Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida vatanparvarlik, milliy g‘urur, bag‘rikenglik, oilaparvarlik, mehroqibat kabi fazilatlarini shakllantirish uchun mustaqil ish sifatida “Mening mahallam — mening faxrim” mavzusi bo‘yicha loyihani yo‘lga qo‘yganimiz. Talabalar o‘z mahallasi tarixi, hurmatli insonlari, an’analari, zamonaviy hayot faoliyati haqida albom-taqdimot ishlab chiqadi, ularni guruhda, mahallada taqdimot qiladi, mahalla rivoji bo‘yicha o‘z taklif va tavsiyalarini tayyorlaydi.

Ushbu loyiha universitetimizda 2017-yildan buyon davom etib kelmokda. O‘tgan davrdagi kuzatuvimiz shuni ko‘rsatmoqda, loyihalarimiz bajarish, izlanish olib borish, ularni taqdimot qilish jarayonlari talabaning dunyoqarashiga



ijobiy ta’sir etmoqda, ularda ma’lum bir ma’naviy yuksalish sezilmokda. Mazkur tajribani butun respublikada omallashtirishga kirishildi. Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, O‘zbekiston mahallalari uyushmasi va Yoshlar ishlari agentligining 2025-yil

13-avgustdagi “Oliy ta’lim tashkilotlarida “Mening mahallam — mening faxrim” loyihasini tashkil etish to‘g‘risida”gi qo‘shma qarori qabul qilindi. Mazkur loyiha bevosita universitetimiz boshchiligidagi amalga oshirilayotir. Loyiha talabalarda yurtga sadoqat, bag‘rikenglik, vatanparvarlik va mehroqibat hissini rivojlantirish, jamiyatimiz asosi bo‘lgan mahalla institutining mazmun-mohiyatini chuqur o‘rganishga xizmat qiladi.

“Mening mahallam — mening faxrim” loyihasida ortiqcha dabbadabozlik yo‘q, aksincha, bu oddiy kundalik ishimiz sifatida namoyon bo‘lishi kerak. Ya’ni oliy ta’lim muassasalari falsafa fanini o‘qitish jarayonida mustaqil ishni bajarish uchun talabalarni o‘z mahallalariga yo‘llaydi, tayyorlagan taqdimotini baholaydi. Mahallalar esa talabalarga loyihani bajarish uchun sharoit yaratadi, yoshlar yetakchisi talaba bilan hamkorlik qiladi, talabani mahalla faoliyatiga jalb etadi.

Xuddi shu kabi mahalla xotin-qizlar faoli talaba qizlarimiz bilan hamkorlik qiladi. A’lochi, jamoat ishlarida faol talabalar va ularning ot-onalari moddiy va ma’naviy rag‘batlantiriladi. Bu esa yoshlar, umuman, aholining ilm-fanga qiziqishini kuchaytiradi, yoshlar o‘z mahallasi bilan tanishadi, keyinchalik qayerda bo‘lishidan qati nazar, mahallasini eslab yuradi. Xullas, ushbu tashkilotlar hamkorligida har yili mahallalarga kamida 300-400 ming talaba boradi, bu esa katta muvaffaqiyat — jamiyatimizda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligiga erishishga katta hissa qo‘shish degani.

Mamlakatimizda 1 million 700 mingdan ziyod talaba bor. Agar loyiha ularning barchasini qamrab olsa, mahalla chinakam qadriyatlar maskaniga aylanadi. Chunki yoshlar, talabalar g‘oyaga boy, tashabbuskor. Talabalarning ana shunday kreativ g‘oyalari mahallani harakatcha keltiradi. To‘y va marosimlar o‘tkazishga, dang‘illama imorat va hashamatli avtomobillar sotib olishga mukkasidan ketgan odamlar isrofgarchilikka emas, balki ilm-fanga, farzandlarini bilimli qilishga pul, sarmoya ajrata boshlaydi. Mahallalarimizda chinakam ma’nodagi milliy qadriyatlar mustahkamlana boshlaydi.

Qolaversa, Uchinchi Renessans ustunlari bo‘lgan professor-o‘qituvchi va pedagoglarning talabalar bilan birga mahallaga kirib kelishi mahalla rivojiga, qiyofasining o‘zgarishiga, kambag‘al oilalar kamayishiga olib keladi. Faol talabalar mahallalardagi uyushmagan yoshlarga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Joylarda o‘quvchilar bilan uchrashuvlar tashkil etilyapti. Talabalar loyiha doirasida maktab o‘quvchilari bilan uchrashib, o‘zlarining bo‘ljak kasblari haqida yoshlarga tushuncha bermoqda. Bu jarayon o‘quvchi yoshlarda kasbga doir ma’lum tasavvurlar hosil qilishiga yordam beradi.

Shu bilan birga, yoshlar o‘z mahallasi tarixi, taniqli insonlari haqida ma’lumotga ega bo‘ladi. Bu esa ertangi kun egalarida axloqiy fazilatlarini yuksaltiradi. Kuzatishlarimizga ko‘ra, bu holat o‘quvchilarda puxta bilim

qadriyatlar, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga hissa qo‘shayotgan ekan, demak, ijtimoiy fanlarga e’tibor kuchaytirilayotgani samara beryapti. Aks holda, dunyoqarashi bir tomonlama shakllangan, o‘zidan boshqani o‘ylamaydigan, xalq, davlat va jamiyat tushunchalaridan begona va bugungi kunda chet ellarda “boy berilgan avlod” deya atalayotgan yoshlar sinfi bizda ham vujudga kelishi mumkin edi.

Prezidentimiz “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” asarida “Bundan 60-70 yil ilgari Ikkinchi jahon urushidan keyingi qiyinchilik va moddiy taqchillik yillarida xorijda ishlab chiqilgan va asosan, ma’naviyat va gumanitar ta’limga pul sarflash zarur emas deb hisoblangan va mutlaq g‘oyasizlikka asoslangan ijtimoiy konsepsiyaning oqibatlari qanday bo‘lganini bugun ko‘rib turibmiz”, deya qayd etadi. Demak, ijtimoiy fanlarni o‘qitishga e’tiborni ayamassligimiz kerak. Besh yil, o‘n yil o‘tar, sarflangan mablag‘ izsiz ketmaganimning guvohi bo‘lamiz.

Janubiy Koreya, Yaponiya, Singapur kabi davlatlar tajribasi ham ta’lim va tarbiyaga sarflangan moliya o‘zini oqlaganini butun dunyoga namoyon qildi. Shunday ekan, ta’lim tizimining barcha bosqichlarida ijtimoiy fanlarni qay tarzda taqsimlash, o‘qitish va amaliyot soatlarini qanday tashkil etishga doir maxsus konsepsiyani ishlab chiqish ehtiyojiga aylandi. Shu sababli Prezidentimiz “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” asarida aytganidek, “Uzluksiz ta’lim tizimida ijtimoiy fanlarni o‘qitish tartibi va tamoyillari to‘g‘risida” qonun ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish ehtiyoji mavjud. Shundaygina biz milliy iqtisodiyotimizning barcha sohalarida har tomonlama bilimli, chinakam zamonaviy kadrlarni tayyorlashga erishamiz.

2026-yilning mamlakatimizda “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili” deb e’lon qilinishi mahalla institutiga davlat e’tiborining yanada oshgani, mahallalardagi bunyodkorlik ishlarining yangi bosqichiga ishoratdir. Bu nafaqat mahalla tizimini yanada mustahkamlash, uning infratuzilmasini yaxshilash, kadrlar salohiyatini oshirish, balki mahallaning ijtimoiy-siyosiy rolini yanada kuchaytirishga qaratilgan keng ko‘lamli davlat dasturlarini amalga oshirishni anglatadi. Ushbu tashabbus mahallani mamlakatning butun ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasining markaziga qo‘yishga qaratilgan.

Biz mahallaning xalq bilan davlat o‘rtasidagi “ko‘priklarni” vazifasini amalga oshiruvchi mustaqil va xalqchil tuzilmaga aylanishini ta’minlashimiz, uni jamoatchilik boshqaruvini va nazoratining tayanch bo‘g‘iniga aylantirishimiz, jamiyatdagi o‘rni va rolini kuchaytirishimiz lozim. Buning uchun esa mahalla boshqaruvida aholining faol ishtirokini ta’minlash, har bir fuqaro o‘zi va oilasining kelajagi, moliyaviy ahvoli va farovonligini ta’minlashda mas’uliyatni sezishi, boqimandlikka o‘rganmaslik hissini yanada kuchaytirish bo‘yicha targ‘ibot-tashviqot ishlarini kengaytirish zarur.

O‘z navbatida, bular fuqarolarning o‘z uyi va ko‘chasini ozoda saqlash, milliy qadriyat va urf-odatlarini hurmat qilish, ma’naviy va ma’rifiy ishlarda mahallaning o‘rnini kuchaytirish, aholi o‘rtasida o‘zaro hurmat va hamjihatlik muhitini mustahkamlash, “mahalla yetilligi” tomonidan mahallaning ichki resurslarini aniqlash hamda ularni ijtimoiy xizmatlar va yordam ko‘rsatishga safarbar etadi. Shuningdek, mahallalardagi muammolarning o‘z vaqtida va samarali yechilishida davlat organlari va tashkilotlarining mahallalardagi vakillari sa’y-harakatlarini birlashtirish, mahallaning moliyaviy imkoniyatlarini oshirish, kambag‘al fuqarolarga ajratilayotgan byudjet va boshqa mablag‘larning maqsadli va manzilli yo‘naltirilishini ta’minlash, mahallalarning moddiy-texnik ta’minotini yaxshilash, sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishga xizmat qiladi.

Qisqasi, Prezidentimizning navbatdagi Murojaatnomasi O‘zbekistonning bugungi va kelajak taraqqiyotida mahalla institutining muhimligini strategik darajada belgilab berdi. Mahalla bu — nafaqat o‘zbek jamiyatining tarixiy merosi, balki ijtimoiy kapitalni shakllantiruvchi, milliy birdamlikni ta’minlovchi, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalovchi va umuman, mamlakat tinchligi hamda ravnaqidagi asosiy poydevor hamdir.



2026-yil 27-yanvar,
17-son

Ko'p yillar davomida Qashqadaryo viloyatida ichimlik suv ta'minoti eng og'riqli muammo bo'lib kelayotgandi. Olis hududlar tugul, voha markazi — Qarshi shahrida ham bu borada bajarilishi lozim bo'lgan ishlar ko'p edi. Ayniqsa, ko'p qavatli uylarda ahvol ancha og'ir bo'lib qolgandi. Kun davomida suv jo'mragiga termilib o'tirishlar, soatlab navbatda turishlar aholini charchatgandi. Oqibatda bir muammo ikkinchisini ergashtirib kelardi.

Soha mutaxassislari ma'lumotlariga ko'ra, 2010-yilda Qashqadaryo aholisining atigi 27 foizi ichimlik suv bilan ta'minlangan. Bu ko'rsatkich 2016-yilga kelib, bor-yo'g'i 37 foizga yetgan. Hozir vaziyat tubdan yaxshilandi. Yangi O'zbekistonnı bunyod etish sari tashlangan odimlar o'z samarasini berib, tizim katta o'zgarishlarga yuz tutdi.

Tomchiga termilgan kunlar endi ertak

Erta tong. Odatda qishloq odamlari subhidamda uyg'onadi. Tong yorishishi bilan qaynoq hayot boshlanadi. Kimdir chorvasiga qaraydi, boshqasi dalaga yo'l oladi. Bundan tashqari, ularning yana bir muhim vazifasi bor. Bunga deyarli har kuni bir kishi band bo'lishi kerak. Bu — suv tashish. Tepalikda joylashgan xonadonda ham aynan shu mavzuda gap ketmoqda. Kecha keltirilgan suv tugagan. Uni olib kelish oson emas. Soatlab navbatga turish lozim.

— Kecha men olib kelgandim. Bugun opam borsin, — deydi oilaning kenja farzandi Botirjon. — Bugun maktabga borishim kerak. Kecha ustozimdan zo'rg'a ruxsat olgandim...

— Men ham darsga bormasam bo'lmaydi. Har ikki-uch kunda suvga boraman. Bugun boshqa birov olib kelsin, — deya e'tiroz bildiradi opasi Nigora.

Bir oz bahslashuvdan so'ng oiladan bir kishi suv keltirishga yo'l oladi. Aslida, bu unchalik qiyin ish emas. Ammo katta qishloq uchun bor-yo'g'i birgina chashma bor. Bir oz kechikkan odam ikki chelak suv uchun yarim kunini yo'qqa chiqarishga majbur. Xaribulog'dagi har bir uyda tongda deyarli shunday manzara kuzatiladi.

Ilgari bu atrofdagi qishloqlarga yuqoridan quvur orqali ichimlik suv keltirilgan. Afuski, yillar o'tib, quvurlar eskirib, yarogsiz holga kelib qolgan. Mana, 20 yildan oshibdik, ichimlik suv muammo. Birgina Dehqonobod tumanining Xaribulog'ida emas, yon atrofdagi qishloqlarda ham ahvol shu. Aholi bir necha bor murojaat qilgan. Ammo so'rov javobsiz qolgan. O'tgan yili aholini qiy nab kelayotgan muammoga barham berildi. Tuman hokimligi tomonidan mablag' ajratilib, tog' etagidan suv keltirildi.

— Obihayot olib kelinishi barchamizni quvontirdi, — deydi Duob mahallasi faoli Xudoyberdi Aliqulov. — Hozir nafaqat Xaribulog', balki Duob, Qizilmozor qishloqlariga ham ichimlik suv keldi.

Hudud aholisi suv kelguncha katta mablag', ko'plab insonlarning mashagqatli mehnati sarf bo'lganini yaxshi biladi. Shu bois, ular har

QASHQADARYO: ICHIMLIK SUV TA'MINOTINI YAXSHILASH BO'YICHA ZAMONAVIY LOYIHALAR



tomchini qadrlashga harakat qilyapti. Behuda oqizishga yo'l qo'ymay, imkon boricha tejashga intilmoqda.

— Tuman hokimligi tomonidan mahalliy byudjetdan 220 million so'm ajratildi. Natijada biryo'la uchta qishloqqa ichimlik suv keldi, — deydi “Qashqadaryo suv ta'minoti” AJ Dehqonobod filiali rahbari Suyunbek Allanzarov. — Jamiyatimiz xodimlari tomonidan quvurlar tortildi. Qishloq odamlari tashabbus ko'rsatib, hashar uyushitirgani bizga katta yordam bo'ldi. Buning evaziga qisqa fursatda suv keldi.

Azaliy orzular ushaldi

Qashqadaryo vohasida ichimlik suv ta'minoti muammosi nafaqat olis manzillarda, balki tuman markazlarida ham bo'lgan. Jumladan, Muborak, G'uzor hamda Koson tumanlarida ahvol deyarli bir xil edi. Oqibatda mazkur hududlarda aholi e'tirozlari ko'payib bordi. Oradan vaqt o'tdi. Yangilanishlar davri boshlandi. Imkoniyatlar ishga solinib, yangi loyihalarga qo'l urildi. Yangi suv saqlash omborlari qurildi. Eski quvurlar almashtirildi, yangi tarmoqlar tortildi.

— Bu yaqin orada tumanimiz markazi ichimlik suv bilan ta'minlanmasa kerak deb o'ylardim, — deydi g'uzorlik mehnat faxriysi Dilbar Xo'jaqulova. — O'tgan yili katta ishlar qilindi. Natijada har bir xonadonga obihayot kirib bordi. Bundan barchamiz mamnun bo'ldik. Oxirgi marta qachon quvurdan suv kelgani yodimdan ham chiqib ketgan ekan. Rosti, bu shunchaki orzuga aylanib qolgan edi. Niyatimiz ijobat bo'ldi.

“Qashqadaryo suv ta'minot” AJ axborot xizmati rahbari Ixtiyor Umarovning ta'kidlashicha, yaqin yillargacha G'uzor tumani aholisining bor-yo'g'i 2,4 foizi ichimlik suv bilan ta'minlangan. 2021-yilda tumanda mazkur yo'nalishda keng ko'lamli ishlar boshlangach, ikkita suv inshooti qurilib, 137 kilometr tarmoq tortilgan. Natijada

Fransiya taraqqiyot agentligining 80,3 million dollar mablag'lari hisobidan ikkinchi — “Shahrisabz va Kitob shaharlarida kanalizatsiya tizimlarini rekonstruksiya qilish va kengaytirish” loyihasi yakuniga yetkazildi.

INSON QADRI UCHUN



G'uzorning yigirma bir yarim ming aholisi ilk bor ichimlik suv bilan ta'minlangan.

Ayni paytda ichimlik suv ta'minoti borasida Koson tumanida ham maqtovg'a loyiq ishlar bajarilmoqda. Tuman markazidagi mavjud suv saqlash inshooti 1971-yilda bunyod etilgan. U ta'mirtalab bo'lib qolgandi. O'tgan yili 4 million dollarga yaqin investitsiya o'zlashtirilishi natijasida hozir har biri 5 ming kub metr suv saqlash sig'imiga ega 2 ta hovuz, 2 ta rezervuar hamda nasos stansiyasi, suvni zararsizlantiruvchi inshoot va laboratoriya qurilmogda.

Ma'lumotlarga ko'ra, shu paytgacha Koson tumani aholisining 7 foizigina ichimlik suv bilan ta'minlangan. Yangi suv inshooti ishga tushishi bilan, avvalo, tuman markazida bu ko'rsatkich 100 foizga yetadi. Qolgan hududlarda bosqichma-bosqich suv ta'minoti yaxshilanib boradi.

— Tuman markazida yashasak-da, ichimlik suvni maxsus mashinalarda tashib ichardik, — deydi Koson tumani “Do'stlik” MFY faoli Maqsuda Rahmatullayeva. — Adashmasam, yigirma yilcha suvsiz yashadik. Qachon bizga ham ichimlik suv kelarkan deya orzu qilardik. Gohida boshqa viloyatlardan tanishlarimiz mehmonga kelsa, xijolat bo'lardik. Yaqinda ko'chamizda yangi suv quvuri tortila boshlandi. Tez orada mahallamizga suv keladi.

Muborak tumanidagi suv inshooti ham 1980-yilda ishga tushirilgan. Undagi suv nasoslari ancha eskirib qolgandi. Oqibatda tuman markaziga suv yetkazib berish katta muammoga aylangan edi. Yangi loyihaga ko'ra, 2 million 800 ming dollar ajratilib, suv inshootidagi har biri 10 ming kub metr suv saqlash sig'imiga ega 3 ta rezervuar qayta ta'mirlanmoqda. Nasos stansiyasi qurilmogda. Tizimda “aqlii” nasoslar o'rnatilyapti. Shu bilan birga, suvni zararsizlantiruvchi inshoot barpo etilib, zamonaviy texnologiyalar bilan

jihozlanmogda. Mazkur loyiha evaziga tuman aholisi to'liq ichimlik suv bilan ta'minlanadi.

— Mash'al mahallasiga ko'chib o'tganimga o'ttiz yil bo'ldi. Ancha yillardan buyon suv muammosi hal etilmay kelinayotgandi, — deydi Muborak tumanida yashovchi Xolnizoz ota Safarov. — Shukrki, bugun hududimizda katta ishlar bajarilmogda. Tez orada nafaqat bizning mahalla, balki butun tumanimiz odamlari bu tashvishdan xoli bo'ladi.

So'nggi yetti yilda 40 foizdan oshdi

Hozir Qashqadaryo viloyatida ichimlik suv Shahrisabz, Kitob, Yakkabog' va Chiroqchi tumanlari yer osti, Dehqonobod



va Nishon tumanlari yer usti manbalardan olinadi.

Aholini ichimlik suv bilan ta'minlash va oqova suv xizmatlarini yaxshilash bo'yicha so'nggi uch yilda sezilarli o'sishga erishildi. Jumladan, barcha dasturlar doirasida 1 trillion 63 milliard so'm hisobiga 233 ta obyektda 3,5 ming kilometr ichimlik va 23 kilometr oqova suv tarmog'i tortildi. Bundan tashqari, 270 ta ichimlik suv va oqova suv inshooti qurildi, rekonstruksiya qilindi. Natijada 190 ga yaqin mahalladagi 301 ming aholi ilk bor ichimlik suv bilan ta'minlandi. 139 ming aholining ichimlik suv ta'minoti yaxshilandi. Masalan, 2024-yilda 64 ta ichimlik va oqova suv obyektda qurilish-montaj ishlari uchun 128,9 milliard so'm ajratilib, 311,3 kilometr tarmoq tortilib, 40 ta inshoot qurildi. Natijada 118,2 ming aholi ichimlik suv bilan ta'minlanib, 71,3 ming aholiga ilk bor toza ichimlik suv yetib bordi. O'tgan 2025-yilda 167,5 kilometr tarmoq va 7 ta inshootni qurish va rekonstruksiya qilish ishlari boshlandi. O'tgan yil yakunigacha 84 kilometr tarmoq tortilib, 3 ta obye kt foydalanishga topshirildi.

Rejaga ko'ra, ishlar izchil davom etmoqda. Xususan, Ko'kdala tumani Beshchashma hududida suv olish inshooti, “Ayritom” va “Sho'rquduq” MFYlarda ichimlik suv tizimlari qurish loyihasi doirasida 38,5 kilometr tarmoq tortildi. Yangi tashkil etilgan tuman markazida tarixda ilk bor oqova suvni tozalash inshooti qurish loyihasi amalga oshirilib, kanalizatsiya tarmog'i foydalanishga topshirildi.

Bundan tashqari, Qarshi tumani “Chaman” MFYdagi “Yangi O'zbekiston” massivida ichimlik va oqova suv tizimlarini qurish uchun 6 milliard so'm o'zlashtirilib, 2025-yilning birinchi yarmida tarmoq tortildi. Qarshi shahrining Xonobod va Alisher Navoiy shohko'chalaridagi bosh quvur o'tgan asrning 70-yillarida yoqizilgan. Ehtiyojga ko'ra, bosh quvurning 0,9 kilometr qismi qurildi.

Umuman olganda, 2025-yil Qashqadaryo viloyati hayotida ulkan o'zgarishlar yili sifatida tarix sahifalariga bitildi. Boshqa sohalarda bo'lgani kabi ichimlik suv ta'minoti tizimida

sezilarli natijalarga erishildi. Sohada islohotlar ko'lami kengayishi evaziga hududlarda yangi suv inshootlari qurildi, yangi tarmoqlar tortilib, eskilari ta'mirlandi. Aholining hayot sifati yanada yaxshilandi.

Xususan, 2025-yilda viloyatda 63 ta loyiha hayotga tatbiq etildi. O'n uchta mahallaga 311,3 kilometr suv tarmog'i tortilib, 40 ta inshootda qurilish-ta'mirlash ishlari bajarildi. Natijada 71,3 ming aholi ilk bor obihayotdan bahramand bo'ldi.

Shuningdek, Qarshi shahrida Shohbekat, Shayxali hamda Obihayot avtomatlashtirilgan “aqlii” suv tarqatish shoxobchalari ish boshladi. Mas'ullarning bildirishicha, viloyatda ichimlik suv bilan ta'minlanish darajasi yetti yil avval 20,8 foiz bo'lgan. Bajarilgan ishlar natijasida o'tgan yil yakuni bo'yicha viloyat aholisining jami 61,8 foizi markazlashgan ichimlik suv bilan ta'minlandi. Shuning o'z yiqoq bajarilgan ishlar qanchalik keng ko'lamli ekanini ko'rsatadi.

64 ta mahallada oqova tizimi yaxshilandi

Vohada keyingi yillarda ichimlik suv ta'minoti tizimini yaxshilashga xalqaro jamg'armalar mablag'lari ham jalb etilyapti. Xususan, o'tgan yili Koson va Muborak tumanlarida Saudiya taraqqiyot va OPEK xalqaro taraqqiyot jamg'armalarining 42 million dollar mablag'i hisobidan suv ta'minotini yaxshilash loyihasi doirasida ish boshlangandi. Uning birinchi bosqichida Kitob tumanidan Koson va Muborak tuman markazlariga keluvchi tarmoqlar rekonstruksiya qilinib, 192 kilometr tarmoq tortildi, 2 ta suv hovuzi rekonstruksiya qilindi.

Shuningdek, kanalizatsiya tizimini joriy qilish bo'yicha ham 2 ta loyiha amalga oshirilmogda. Birinchi loyiha Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining 60 million dollar mablag'i evaziga bajarilishi belgilangan. Hozir “Qarshi shahri kanalizatsiya tizimini rekonstruksiya qilish va qurish” loyihasida quvurchilarni tanlash tenderlari yakuniga yetkazildi. Umumiy qiymati 56,8 million dollarga teng 6 ta paket bo'yicha tender hujjatlari tayyorlanib, pudratchilar tomonidan mobilizatsiya ishlari yakunlanmogda.

Ayni kunlarda mavjud eskirgan binolar demontaj qilinilyapti. Loyiha doirasida Qarshi shahridagi 50 ta MFYda istiqomat qiluvchi 245 ming aholi uchun kanalizatsiya xizmati yaxshilanadi.

Fransiya taraqqiyot agentligining 80,3 million dollar mablag'lari hisobidan ikkinchi — “Shahrisabz va Kitob shaharlarida kanalizatsiya tizimlarini rekonstruksiya qilish va kengaytirish” loyihasi yakuniga yetkazildi.

Belgilangan dasturga ko'ra, 517 kilometr oqova suv tarmog'i tortish va rekonstruksiya ishlari bajarilib, 2 ta oqova suv tozalash inshooti hamda 14 ta nasos stansiyasi quriladi. Jami 4 ta paket doirasida 65,2 million dollarlik qurilish ishlari bajariladi va 15,1 million dollarga 2 ta tozalash inshooti hamda 14 ta nasos stansiyalari uchun jihozlar, maxsus mexanizmlı texnika vositalari sotib olinadi.

Loyiha to'liq ishga tushgach, Shahrisabz va Kitob shaharlaridagi 64 ta mahalladagi 184 ming aholi uchun kanalizatsiya xizmati yaxshilanadi.

Akbar RAHMONOV, “Yangi O'zbekiston” muxbiri

YANGICHA YONDASHUVLAR

Mamlakatimiz chegaralarining mustahkamligi yurt osoyishtaligi, xalq tinchligi kafolatidir. Shu bois, yurtimiz hududiga kirib kelayotgan yuklar doimiy ravishda tegishli tekshiruvdan o'tkaziladi. Aks holda, chegaradan o'tayotgan har bir zararli yoki noqonuniy mahsulot bevosita insonlar hayoti va salomatligiga zarar yetkazishi mumkin. Gap nafaqat grippvandlik, psixotrop moddalar, qurol-yarog' va o'q-dorilarning noqonuniy aylanmasi bilan bog'liq huquqbuzarliklar, balki fitosanitar xavfi yuqori bo'lgan karantin ostidagi mahsulotlarning olib kirilishi haqida boryapti.

Bu kasallangan ekish materiallari, urug'lik, ko'chat, qalamcha va boshqalar bo'lishi mumkin. Masalan, kasallangan pomidor



ko'chatini olaylik. Mabodo u chegara punkti orqali mamlakatimizga kirib kelsa va muayyan hududga ekilsa, qisqa vaqtda niholdagi kasallik boshqa o'simliklarga ham yuqishi, hosildorlikning kamayishi yoki butkul yo'qolishiga olib kelishi mumkin. Shu bois, bunday ekin va o'simliklarni mamlakat hududiga kirmasligi qat'iy nazorat qilinadi.

Fitosanitar xavfsizlik talablariga javob bermaydigan, kasallangan hamda yurtimiz hududida o'simliklar kasalliklari tarqalishiga sabab bo'ladigan mahsulotlar ham xavfli sanalib, ularni chegara o'tkazish maskanlaridayoq ushlab qolish va tegishli tartibda yo'q qilish muhim vazifalardan. Ayniqsa, jahonda oziq-ovqat xavfsizligi dolzarb bo'lib turgan

hozirgi sharoitda bu boradagi nazorat yanada qat'iy lashib boryapti.

Ammo bunday mahsulotlarni bir qarashda aniqlash qiyin. Odatda yurtimiz bo'xona, aeroport va boshqa chegara o'tkazish maskanlarida yuklarni tekshirishda maxsus o'rgatilgan xizmat itlaridan foydalaniladi. “Detektor — xizmat itlari” turli yo'nalish bo'yicha tayyorlanadi. Shulardan biri aynan karantin ostidagi mahsulotlarni topishdir. Xizmat itlari shu vazifaga o'rgatiladi hamda chegara maskanlarida ulardan foydalaniladi. Xizmat itlari 11 turdagi ekish materiallarini aniqlay oladi. Ularni tarbiyalash, tayyorlash, xizmatga yo'naltirish esa kinologlarning ishi. Aniqrug'i, xizmat itlarini tayyorlaydigan mutaxassislar shunday ataladi.

Oxirgi yillarda O'simliklar karantini va himoyasi agentligi tizimiga ham kinologlar xizmati kirib keldi. Dastlabki sa'y-harakatlar 2020-yilda boshlangan. O'shanda mamlakatimiz delegatsiyasi o'simliklar karantini sohasi bo'yicha tajriba almashish maqsadida Chilida bo'lib, u yerda joriy etilgan kinologiya xizmatiga e'tibor qaratdi. So'ng ushbu tajribani yurtimizda joriy etish taklifi bildirildi.

Davlatimiz rahbarining 2020-yil 13-oktabrdagi tegishli qarori bilan O'simliklar karantini va himoyasi agentligi tizimida kinologiya sohasi yo'lga qo'yildi. Bu yurtimizda

oziq-ovqat xavfsizligi birlamchi masalaga aylanib, shu boradagi barcha yo'nalish tubdan isloh qilina boshlagach, fitosanitar xavfsizlik talablari ham to'liq xalqaro standartlarga moslashtirilayotganining yaqqol ifodasi bo'ldi.

Shu tariqa 2020-yildan boshlab har yili Bojxona qo'mitasi hamda Ichki ishlar vazirligining milliy kinologiya markazlarida o'simliklar karantini sohasida 5 tadan “detektor — xizmat iti” hamda 5 nafardan kinolog tayyorlab kelinmogda. Bugun agentlik tizimida 27 kinolog hamda 29 xizmat iti ishlamoqda.

Buyo'nalishda aniqlik birlamchi vazifalardan. Shu bois, tizimdagi itlar va kinologlar muntazam qayta tayyorlanadi. Mutaxassislar zamonaviy usullarda malaka oshiradi. Masalan, Bojxona qo'mitasining milliy kinologiya markazida o'rgatilyotgan xizmat itlarida vazifani bajarish ko'nikmasini shakllantirish uchun real sharoitga maksimal darajada yaqinlashtirilgan infratuzilma yaratilgan. O'rgatish maydonlariga konteynerlar, yengil va yuk avtoulavlari, avtobuslar, temir yo'l vagonlari, kater, samolyot va boshqa o'rgatish elementlari maketi o'rnatilgan bo'lib, qidiruv mashqlari alohida joy va trenajyorlarda o'tkaziladi.

Jarayonlar “Kinologiya xizmati” avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali kuzatilib, tahlil qilib boriladi. Shuningdek, teri ostiga joylashtirilgan elektron chiplar har bir

FITOSANITAR XAVFSIZLIK

xizmat iti to'g'risida individual xarakterdagi batafsil ma'lumotlar bazasini shakllantirish imkonini beradi.

Muntazam tayyorgarlik xizmat itlari faoliyatidagi aniqlik va hushyorlikni yanada oshiradi. Bu esa chegara maskanlarida o'tayotgan karantin ostidagi mahsulotlarni tezroq aniqlashga xizmat qiladi. Malakali kinologlar itlarni doim ana shu vazifaga tayyorlab, yo'naltirib boradi.

O'simliklar karantini sohasiga kinologlarning kirib kelishi shu yo'nalishdagi ishlar samaradorligini oshirdi. Xususan, chegara o'tkazish punktlari orqali avtomobil, aviatsiya, temir yo'l transportlari hamda yo'lovchilarning bagaji va qo'l yuklari orqali fitosanitar xavfi yuqori ekish materiallari, urug'lik, ko'chat, qalamcha va boshqa turdagi karantin ostidagi mahsulotlarning yurtimiz hududiga noqonuniy olib kirilishining oldi olindi.

Jumladan, 2021-yili “detektor — xizmat itlari” yordamida 8403 kilogramm hamda 12 ming 779 dona ekish materialı, urug'lik, ko'chat, qalamcha va boshqa turdagi karantin ostidagi mahsulotlarning noqonuniy olib kirilishi to'xtatib qolingan bo'lsa, 2025-yilda 101 ming 742 kilogramm va 150 ming 292 dona zararli mahsulot chegara maskanlarida ushlab qolindi.

G'ayrat RAJABOV, O'simliklar karantini va himoyasi agentligining tashqi karantin nazorati bo'limi boshlig'i o'rmbosari

